

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TALAPOVA NARGIZA BAXRIDDINOVNA

**IJTIMOIY SOHALARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Talapova Nargiza Baxriddinovna

Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirish..... 3

Талапова Наргиза Бахриддиновна

Совершенствование системы финансового обеспечения социальных
сфер..... 25

Talapova Nargiza Baxriddinovna

Improving the system of financial support for the social
sphere..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TALAPOVA NARGIZA BAXRIDDINOVNA

**IJTIMOY SOHALARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2589 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karlibayeva Raya Xojabayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuxliyev Bozor Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "15" 02 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1397 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" 01 kuni tarqatildi.

(2024-yil "14" 01 dagi 6- raqamli reyestr bayonnomasi).



M.P.Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V.G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish tajribasi tadqiqi shuni ko'rsatadiki, aksariyat mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, mavjud ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish kabi muammolar, asosan, davlat byudjeti mablag'lari orqali ta'minlanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD – Organisation for Economic Cooperation and Development)ning moliyaviy hisobotiga ko'ra, unga a'zo bo'lgan ayrim mamlakatlarda 2021-yil yakuni bo'yicha ijtimoiy sohalar moliyaviy ta'minotida byudjetdan moliyalashtirish ulushi o'rtacha 75,1 foizni, xususan, “bu ko'rsatkich Belgiyada-76%, Finlyandiyada-70,1%, Kanadada-77,9%, Daniyada-73,6%, Germaniyada-73,1%, Shvesiyada-75,9%, Shveysariyada-77,7%, AQSHda-71,8%ni tashkil etadi”¹. Mazkur davlatlar tajribasi davlat hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi vazifalarini samarali tashkil etish orqali ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zarurligini isbotlaydi. Bu esa, davlatning bosh maqsadi xalqning turmush farovonligini oshirish, aholi uchun qulay ta'limiy muhit yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv global moliya tizimlariga integratsiyani kuchaytiradi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlashda byudjet tizimi bo'g'inlari ishtirokida markaziy byudjet bilan bir qatorda quyi byudjetlar ishtiroki mexanizmi ham izchil ilmiy tadqiq etilmoqda. Dunyoning 100 dan ortiq davlatida ijtimoiy mas'uliyatni nomarkazlashtirishni nazarda tutuvchi u yoki bu ko'rinisdagi ilmiy izlanishlar shular jumlasidan. Mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish maqsadida mahalliy byudjetlarning xarajat vakolatini kengaytirish, mahalliy hokimiyat organlarining byudjet ijrosini ta'minlashdagi manfaatdorligini kengaytirish, mahalliy byudjetlar ijrosi jarayonida keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Biroq ilmiy tadqiqot ishlarida nomarkazlashtirishning ijtimoiy oqibatlari hamda ijobiy va salbiy jihatlari o'rganilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va natijaviyligi ularni o'z vaqtida va zarur miqdorda moliyaviy mablag' bilan ta'minlanishiga bevosita bog'liqdir. Afsuski, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda mahalliy boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda o'z mablag'larining yetishmasligi muammosi hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan, “...hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag'lari yetarli emas”². Shu munosabat bilan “...har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan

¹ OECD Fiscal Decentralisation Database (<https://www.oecd.org/ctp/federalism/fiscal-decentralisation-database.htm>).

² Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har-bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – B. 9.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini subvensiyadan chiqarishni so‘zsiz ta‘minlash kerak”³ligi, shuningdek, “...mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni kengaytirish zarur”⁴ligi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlashda mahalliy byudjet ishtiroki va uning mustaqilligini ta‘minlash dolzarb masala hisoblanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning ishtirokini tubdan qayta ko‘rib chiqish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjet mablag‘larini samarali boshqarishda mustaqil funksionalligini ta‘minlash muhim jihatdir. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy byudjetlarning moliyaviy majburiyatlarini optimallashtirish orqali ularning mustaqilligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, taqdim etilgan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”da, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” da amalga oshirishga oid Davlat dacturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 30-dekabrda PQ-4555-son “O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlash tizimi, davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar, ularning xarajatlari tarkibi va tuzilmasi, mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishning konseptual asoslari va amaliy jihatlari uzoq xorijlik olimlardan: C.Dziobek, Mangas Gutierrez, P.Kufa, Jorge Martinez-Vazquez, Andrey Timofeyev, Nicoletta Ferugilo kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁵.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// “Xalq so‘zi”, 2018-yil, 29-dekabr. №271-272 (7229-7230).

⁴ Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil: qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 9.

⁵ Dziobek C., Gutierrez Mangas and P. Kufa (2011). Measuring Fiscal Decentralization - Exploring the IMF's Databases. International Monetary Fund Working Paper 11/126, Washington, DC.; Jorge Martinez-Vazquez and Andrey Timofeev (2009). Decentralization Measures Revisited. Andrew Young School of Policy Studies, Georgia State University, USA; Nicoletta Ferugilo (2007). Overview of Fiscal decentralization. UNDP.

Yaqin xorijlik olimlardan: O.Vrublevskaya, L.Drobozina, M.Romanovskiy, N. Irayeva, G.Aznabayevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ijtimoiy sohaga investitsiyalarning mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli masalalari o‘rganilgan⁶.

Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlash tizimiga oid masalalar: T.Malikov, O.Olimjonov, N.Xaydarov, N.Qo‘ziyeva, D.Raxmonov, S.Buzurukxonov, X.Qurbonov, A.Sherov, M.Sharapova, G.Kasimova va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlarida yoritilgan⁷.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ilmiy ishlarida ijtimoiy sohalar moliyasining ayrim jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsa-da, aynan, Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlash tizimini takomillashtirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Mazkur holatlar ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion taraqqiyot, inson kapitalini rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlashning zarurligi va mazmunini yoritish;
ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlashning huquqiy-me‘yoriy jihatlarini o‘rganish;

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlashning xorijiy tajribasi va ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari tadqiq etish;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish amaliyoti tahlilini amalga oshirish;

xalq ta‘limi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning hozirgi zamon amaliyotini tahlil qilish;

⁶ Врублевская О. Финансы, денежное обращение и кредит. – М.: Юрайт, 2012. – С. 368.; Дробозина Л. Финансы. – М.: ЮНИТИ, 2003. – С.527.; Романовский М., Врублевская О. Финансы: Учебник для вузов. – М.: Юрайт, 2006. – С. 523.; Ираева Н., Азнабаева Г. Финансы, анализ бюджетных учреждений: Учеб. Пособие. - Уфа: Уфимский государственный университет экономики и сервиса, 2014. – С. 124.

⁷ Malikov T., Vahobov D., Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2012. – B. 373.; Malikov T., Olimjonov O. Moliya. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – B. 425.; Xaydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. – T: Akademiya, 2005. – B. 128.; Qo‘ziyeva N. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – B. 296.; Raxmonov D. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. aftiref. - T.: 2022. – B. 31; Buzurukxonov S. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta‘limni moliyalashtirishni takomillashtirish: DSc. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. aftiref. - T.: 2022. – B. 36.; Qurbonov X. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. – T.: 2010. – B. 146.; Sherov A. Oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘llari: PhD. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. aftiref. - T.: 2020. – B. 22.; Sharapova M. Xalq ta‘limi tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari: PhD. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. aftiref. - T.: 2021. – B. 20; Kasimova G. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida outsorsing va undan foydalanishning afzalliklari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4, avgust, 2019 yil. – B. 3-11.

oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish hozirgi zamon amaliyotining tahlilini amalga oshirish;

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlashdagi muammolar va ularning yechimlarini yoritish;

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash tizimi samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ijtimoiy soha bo'g'ini bo'lgan ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli va statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash, solishtirma tahlil, ilmiy bashoratlash va mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, byudjet mablag'lari miqdorini aniqlashda kutilayotgan iqtisodiy natija jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy imkoniyatlar mavjudligi mo'ljalinini olishi zarurligi byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligi pastligi YAIMning o'sish sur'atlarini sekinlashtirishga salbiy ta'sir etishi sababli byudjet muassasasining "ishlash" tamoyilidan voz kechish va "samarali natija" tamoyiliga o'tishining nazariy jihatlari orqali asoslab berilgan;

hududlardagi rentabellik darajasi 15 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari tomonidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarini foyda (daromad) solig'iga tortish bazasidan chiqarish yoki har yillik sof foydadan 1 foizgacha mablag'larni ajratishni yo'lga qo'yish orqali mazkur xo'jalik subyektlariga yaqin joylashgan maktablar, kasb-hunar texnikumlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlariga jalb etishni rag'batlantirish taklifi asoslangan;

oliy ta'lim tizimi faoliyatini moliyalashtirishda davlat byudjet xarajatlarini qisqartirishning yangi manbalari hisoblangan endowment fondlari hamda fandrayingdan foydalanishning maqbul ($E_f \approx 0,58$; $F_r \approx 0,42$) nisbatlari asoslab berilgan;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va loyihalarni moliyalashtirish holatining uzoq muddatli dinamikasi va tendensiyalarini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida sohani rivojlanishining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash tizimining iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish zaruriyatini ifodalovchi ilmiy asoslangan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

byudjet mablag'lari miqdorini aniqlashda kutilayotgan iqtisodiy natija jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy imkoniyatlari, byudjet muassasasining "ishlash" tamoyilidan voz kechish va "samarali natija" tamoyiliga o'tishi lozimligi asoslab berilgan;

davlat byudjet xarajatlarini qisqartirish va ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda imkoniyatlarini kengaytirish, qo'shimcha manbalarini shakllantirish, ya'ni endaument fondlari mablag'laridan foydalanishni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlashga oid statistik ma'lumotlarning ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, "Ochiq byudjet" portali va "Tashabbusli byudjet" faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, "Ochiq byudjet" portali ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi hamda xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishni takomillashtirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, byudjet mablag'lari miqdorini aniqlashda kutilayotgan iqtisodiy natija jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy imkoniyatlar mavjudligi mo'ljalini olishi zarurligi byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligi pastligi YAIMning o'sish sur'atlarini sekinlashtirishga salbiy ta'sir etishi sababli byudjet muassasasining "ishlash" tamoyilidan voz kechish va "samarali natija" tamoyiliga o'tishining nazariy jihatlari orqali asoslashga oid nazariy ma'lumotlardan 5231900 – Korporaiv boshqaruv yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Korporativ moliya" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda byudjet muassasasining "ishlash" tamoyilidan voz kechish va "samarali natija" tamoyiliga o'tishi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududlardagi rentabellik darajasi 15 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari tomonidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarini foyda (daromad) solig'iga tortish bazasidan chiqarish yoki har yillik sof foydadan 1 foizgacha mablag'larni ajratishni yo'lga qo'yish orqali mazkur xo'jalik subyektlariga yaqin joylashgan maktablar, kasb-hunar texnikumlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish

va jihozlash ishlariga jalb etishni rag'batlantirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-noyabrdagi 03/03-3362-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, hududlardagi xo'jalik subyektlarini tomonidan maktablar, kasb-hunar texnikumlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlariga jalb etishni rag'batlantirish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim tizimi faoliyatini moliyalashtirishda davlat byudjet xarajatlarini qisqartirishning yangi manbalari hisoblangan endowment fondlari hamda fandrayzingdan foydalanishning maqbul ($E_f \approx 0,58$; $F_f \approx 0,42$) nisbatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-noyabrdagi 03/03-3362-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim tizimi faoliyatini moliyalashtirishda endowment fondlari hamda fandrayzingdan samarali foydalanish imkoni yaratilgan;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va loyihalarni moliyalashtirish holatining uzoq muddatli dinamikasi va tendensiyalarini ifodalovchi ekonometrik modellar asosida sohani rivojlanishining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-noyabrdagi 03/03-3362-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlanishining istiqboldagi asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro, 3 respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan respublika va 3 tasi yetakchi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matn hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Ishning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'yekti va predmeti

shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi sinovdan oʻtganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning zarurligi va mazmuni, ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning huquqiy-meʼyoriy jihatlari, ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning xorijiy tajribasi va ulardan Oʻzbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari tadqiq qilingan.

Ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning zarurligi, mohiyati va manbalari tizimiga xos muammolar kontekstida: ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashning yangi imkoniyatlari, ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlashda davlat-xususiy sherikchiligi, aholi turmush farovonligini taʼminlashning moliyaviy mexanizmi, daromadlarning chegaraviy nafililigi asosidagi soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari oʻrtasida optimal taqsimlash muammolari, virtual makonga asoslangan biznesdan olinadigan daromadlarning ijtimoiy sohalarni moliyaviy taʼminlash bilan manfaatli bogʻliqligini taʼminlashning tashkiliy asoslari iqtisodchi-olimlar tomonidan oʻrganilmoqda. Yalpi isteʼmol talabini moliya mexanizmi orqali ragʻbatlantirish, jamgʻarmalar va ularni investitsiyalarga transformatsiyalashga moliya tizimining taʼsirini takomillashtirish, kapitallarni transmilliy harakatlanishini individual daromad soligʻi mexanizmi orqali tartibga solish singari masalalar borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bu masalalarni hal qilish uchun respublikamizda ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirishning muhim masalasi sifatida – ijtimoiy sohaga investitsiyalar samaradorligini oshirish, byudjetdan moliyalashtirish va tadbirkorlik asosida topilgan daromadlar koʻlamini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Ijtimoiy sohaning asosiy yoʻnalishlari⁸

⁸ Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M. Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. - T.: TDIU, 2010. asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Chunki ijtimoiy sarmoya orqali inson yuksak bilim, ko'nikma, tajriba, iste'dod va salohiyatga erishadi, bu esa uning obro'-e'tibori va jamiyatdagi o'rniga ta'sir qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, iqtisodchi-olimlarning ilmiy qarashlarida davlat tomonidan taqdim etiladigan va uning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmat turlarining ahamiyati va zaruriyatligi borasida turli xil fikrlar mavjud.

Jumladan, o'zbekistonlik olimlar fuqarolarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun mamlakat milliy daromadining bir qismi hisobidan pul mablag'larining ijtimoiy fondlarini shakllantirish orqali davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlarning moliyalashtirilishini asoslab o'tgan bo'lsalar⁹, xorijlik olimlar tomonidan: ijtimoiy siyosatga davlatning ta'siri ikki nuqtayi nazardan talqin etilgan. Ba'zi tadqiqotchilar: O.Nikiforova¹⁰, T.Yu.Sidorina¹¹, M.Yu.Fedorova¹²lar davlatning ijtimoiy xizmatlarini aholiga taqdim qilish tizimida davlatning tartibga soluvchi ta'sirini kuchaytirish zarurligini asoslaganlar, ikkinchi guruh olimlar O.V. Rodionova¹³, L.S. Mamut¹⁴lar esa, davlatning ijtimoiy xizmatlarini taqdim etishning yangi (ijtimoiy davlat) modelini asoslashga harakat qildilar.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori G.S. Bekker o'z nazariyasida intellektual kapitalga ham davlat, ham xususiy sarmoyalarni amalga oshirish iqtisodiy zarurat ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, fuqarolarning ta'limiga, tibbiyotga va kadrlarni to'ldirishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlarga sarmoyalar kiritish bu yangi texnologiyalarni yaratishga sarmoya kiritish bo'lib, faqat kelajakda katta foyda keltirishi mumkin¹⁵. Chia-Xui Luning fikricha, "Ta'lim tizimining samarali tashkil etilishi iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakatda boshlang'ich va o'rta ta'lim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi"¹⁶. Shuningdek, T.S.Gusevaning ilmiy qarashlarida davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar fuqarolarning munosib turmush darajasini ta'minlashni tavsiflovchi sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ham davlatning ijtimoiy standartlarini o'zida aks ettirishi zarur deb ta'kidlangan¹⁷.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va A.Vahobovlar moliyalashtirish iqtisodiyot subyekti faoliyatining pul bilan ta'minlanishi bo'lib,

⁹ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik/ Toshkent Moliya instituti. – Toshkent.: "Noshir", 2012. – B. 712.

¹⁰ Никифорова О.Н. Пенсионное обеспечение в системе социальной защиты населения [Электронный ресурс]: монография / О.Н.Никифорова. - Москва: ИНФРА-М, 2018. – С.124.

¹¹ Сидорина Т.Ю. Два века социальной политики. - М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2005. – С. 442.

¹² Федорова М.О социальной функции государства в сфере взаимно действия экономической эффективности и социальной справедливости. // Общество и экономика. 2014. № 7. – С. 149-157.

¹³ Родионова О.В. Социальная функция современного государства. - М.: Юрлитинформ, 2010. – С. 228.

¹⁴ Мамут Л.С. Социальное государство с точки зрения права // ГОСУДАРСТВО И ПРАВО 2001, N7, –С. 5-14.

¹⁵ Батова Б.З., Асланова Л.О., Аликаева М.В., Губачиков А.М. Проблемы финансирования образования в России // Фундаментальные исследования. 2016. № 5-3. – С. 546-550.

¹⁶ Chia-HuiLu. "Social status, compulsory education, and growth"//Economic Modelling. Volume 68, January 2018, – P. 425-434.

¹⁷ Гусева Т.С. Социальное обеспечение семьи, материнства, отцовства и детства в России: теоретические и практические проблемы. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Москва. 2012. – С. 7.

ular bir nechta usullar orqali amalga oshirilishini, jumladan, o'zini-o'zi moliyalashtirish, byudjetdan moliyalashtirish va homiylar tomonidan moliyalashtirishni e'tirof etgan bo'lsalar¹⁸, T.Malikov va N.Haydarovlarning fikricha "Moliyalashtirish rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun subyektlarga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni taqdim etish" deb tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir prinsiplarga tayanadi¹⁹. D.Raxmonovning O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotida: "Ta'lim tizimini moliyalashtirish yo'nalishlarini kengaytirish lozimligi ta'lim bilan aholini qamrab olishning dolzarbligi orqali ifoda etiladi. O'zbekistonda ta'limning qamrab olish darajasi birmuncha kichik raqamlarda bo'lib qolayotganligi uning moliyaviy dastaklari bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham, ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalarini va ularning boshqaruvini liberallashtirish zaruriyati tug'iladi", - degan xulosaga kelgan²⁰.

Davlatning ta'lim sohasiga yo'naltiradigan xarajatlari kelajakda YAIM hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bu mablag'lar investitsiya sifatida inson faktorini rivojlantirishga va kelajakda ishlab chiqarishni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi²¹. Ijtimoiy sohani byudjetdan moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi moliyalashtirishning qoldiq usulidan foydalanib taxminiy moliyalashtirish tartibini qo'llash orqali mustahkamlanadi. Bunday sharoitda xarajatlar va olingan natija o'rtasidagi bog'liqda nomutonasiblik yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida ushbu sohadagi mehnat samaradorligini rag'batlantirishning pasayishiga olib keladi. Byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligi pastligi YAIM ning o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shuning uchun byudjet muassasasining "ishlash" tamoyilidan voz kechish va "samarali natija" tamoyiliga o'tishi zarurdir. Ya'ni, byudjet mablag'lari miqdorini aniqlashda kutilayotgan iqtisodiy natija jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy imkoniyatlar mavjudligi mo'ljali olish lozim. Respublika va mahalliy byudjet munosabatlari ijtimoiy soha ehtiyojlarini moliyalashtirishning byudjet mexanizmida ahamiyatli o'ringa ega. Asosiy muammolardan biri bu byudjet tizimidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etib, xususan, hukumatning turli darajalari o'rtasida moliyaviy resurslarni taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, bugungi kunda ijtimoiy sohani moliyalashtirishda yetakchi rol davlat boshqaruv organlariga tegishlidir. Biroq, ijtimoiy sektorni moliyalashtirishning byudjet mexanizmi yetarli maromda maqsadli amalga oshirilmayapti.

Har qanday mamlakat ijtimoiy siyosatining vazifalari davlatni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, butun mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish uchun shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, bu jarayonda bozor munosabatlari orqali

¹⁸ O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – T.: TDIU. 2014. – B. 409.


¹⁹ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti.O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007. – B.84.

²⁰ Raxmonov D. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati - T. 2018. –B. 71.

²¹ Adel Ifa, Imène Guetat. "Does public expenditure on education promote Tunisian and Moroccan GDP per capital"//The Journal of Finance and Data Science (2018) – P.10-13.

yuzaga keladigan aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni yumshatishdan iborat. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, investitsiya turlari ichida ijtimoiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy investitsiyalar tufayli insonning bilimi, iqtidori, salohiyati, ko'nikmasi, tajribasi oshib, o'z natijalarini ko'rsatadi. Bularni rivojlantirishning muhim omili investitsiyalardir. Inson kapitali investitsiyasi inson kapitali sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishini ta'minlovchi, shuningdek, uning amal qilish samaradorligini oshiruvchi chora-tadbirlar va xarajatlar yig'indisi tushuniladi.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlashning amaldagi mexanizmi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tahlili, xalq ta'limi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning hozirgi zamon amaliyoti tahlili, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim xarajatlarini rejalashtirish hamda moliyalashtirish tahlili amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasiga davlat tomonidan beriladigan e'tiborni ushbu sohaga yo'naltirilayotgan mablag'larning hajmidan ham bilish mumkin.



2-rasm. Ta'lim xarajatlarning YAIM, jami byudjet xarajatlari va ijtimoiy xarajatlardagi ulushi va o'tgan yillarga nisbat o'zgarish tendensiyasi²²

2-rasmdagi diagrammada ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning yillar bo'yicha YAIMdagi hissasini o'zgarish dinamikasi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, 2018-2022 yillarda o'rtacha tebranish 5,1% dan 5,8% gacha o'sish xususiyatiga ega bo'lgan bo'lsa, ijtimoiy xarajatlardagi ulushi 48,3% dan 42,7% gacha kamayish xususiyatiga ega.

Ayniqsa, 2019 yilga e'tibor beradigan bo'lsak, ta'lim xarajatlari o'tgan 2018 yilga nisbatan 161,9% o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, ammo uning YAIM, davlat byudjeti xarajatlari va ijtimoiy soha xarajatlaridagi ulushlarining kamayish tendensiyasi 117,8 % ekanligini ko'rish mumkin.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishtirok etishi, bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun moliya sektorida boshqaruv qarorlarini qabul qilish,

²² <https://openbudget.uz/home> O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet portali" ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

shuningdek, bu borada davlat-xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish jihatlarini qamrab oluvchi ilmiy tadqiqotlar jahon miqyosida faol olib borilmoqda. Bir qancha ilmiy ishlarda maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar atroflicha muhokama etilgan.

1-jadval

Davlat byudjetining ta'lim sohasiga qilingan xarajatlar tarkiblarining hissalari²³

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Ta'lim	100%	100%	100%	100%	100%
Maktabgacha ta'lim	11,7	15,8	17,2	20	20
Umumiy ta'lim	60,3	58,1	72,1	69	66
Kadrlar tayyorlash, shundan:	28	26,1	10,7	11	14
Oliy ta'lim	5,2	4,6	6,6	6,9	9,6
Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar	16,8	7,0	4,1	4,1	4,4

Jadval ma'lumotlaridan, ta'lim sohasiga ajratilgan pul mablag'lari tarkibida maktabgacha ta'lim 2018-yili 11,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa, 20% oshganligini ko'ramiz. Mablag'larning asosiy ulushi umumta'limga to'g'ri kelib, uning hajmi 2018-yili 60,3% ni va 2022-yilga kelib 66% ni tashkil etgan. Kadrlar tayyorlash bo'yicha ajratilgan mablag'lar 2018-yili 28% ni tashkil etib, 2022-yili uning hajmi 14% kamayganligini ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651-sonli qaroriga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim sohasida davlat xususiy sherikchiligi shakllari joriy etildi, bu sohadagi xususiy sheriklarga qator imtiyozlar va preferensiyalar berildi.

Jumladan, davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalariga imtiyozli (yillik 1 foizli) kreditlar ajratildi. Bundan tashqari, davlat-xususiy sherikchiligi shartlari asosida tashkil qilingan muassasalar xarajatlarining bir qismini qoplash uchun 2019-yildan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan summaning 50 foizigacha bo'lgan miqdorda Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibi amalga kiritildi.

Jahon maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari bilan qamrab olish, muassasada bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun samarali moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish va maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tizimi, moliyaviy ta'minotini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalari mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurashning muhim elementi sifatida dolzarb vazifalarni bajarmoqda. Hozirgi kunda 5 yoshgacha bo'lgan besh million bola malakasiz ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar

²³ <https://openbudget.uz/home> O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portal ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

natijasida vafot etmoqda. Shu boisdan, bolalarning sog‘ligi va ta‘lim olishi kambag‘allikka qarshi kurashda asosiy omil bo‘lishi shart. Yuqorida keltirilgan masalalar maktabgacha ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta‘lim sohasi mazkur tizimning ilk bo‘g‘ini hisoblanadi va butun ta‘lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo‘lgan - barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘limning maqsadi - bolalarni maktabda ta‘lim olishga tayyorlash, sog‘lom, har tomonlama yetuk, erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarning qobiliyatini ochish, ularda o‘qishga, muntazam ta‘lim olishga havas uyg‘otishdan iborat. Maktabgacha ta‘lim bolalarda o‘qishga havas uyg‘otish, ularni tizimli ravishda o‘qishga tayyorlash, sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi hamda bugungi kunda mazkur tizimda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, keyingi yillarda maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar soni ham o‘sib borish tendensiyasiga ega (2-jadval).

2-jadval

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar soni²⁴


Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Jami tug‘ilganlar soni	768 520	814 960	841 817	905 211	932 217
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni	874385	1276904	1444328	1779002	2009825
1-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta‘lim tashkiloti bilan qamrab olinishi (%)	21,0	26,3	27,3	29,4	31,3
3-6 yoshli bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishi (%)	32,0	46,6	50,9	62,0	68,3

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni 2018-yilda 874 385 tani, 2022-yilda esa, 2 009 825 ta tarbiyalanuvchini tashkil etadi. Tahlil qilinayotgan davr boshiga nisbatan 2,3 barobar ko‘p. Shuningdek, 2022-yilda 1-6 yoshli bolalarni qamrab olish darajasi 31,3%ni, 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olishi 68,3 %ni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 10,3% ga va 36,3% ga ko‘paygan.

Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Ta‘limga sarflanadigan byudjet xarajatlarining YAIMga nisbati mamlakatning ta‘limga sarflanayotgan milliy boyligining ulushini ko‘rsatadi. Byudjetdan ta‘lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘larning salmoqli qismi umumiy ta‘limni moliyalashtirishga sarflanadi. Shu o‘rinda oxirgi 2018-2022-yillarda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning hajmining va unda davlat byudjetining umumta‘lim xarajatlarini ulushini ko‘rib chiqamiz (3- rasm).

²⁴ <https://stat.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.



3-rasm. Umumta'lim xarajatlarini YAIMdagi ulushi²⁵

Davlat byudjetining 2022-yildagi xarajatlari 236,7 trln. so'm yoki YAIMning 26,7% (2021-yilda 188,3 trln. so'm yoki YAIMning 25,6%i) tashkil etdi. Shunga mos ravishda davlat byudjeti xarajatlari 2018-yilda 62,17 trln. so'm yoki 3,8 barobarga, ta'lim xarajatlari 2022-yilda 50,3 trln. so'm bu esa, 2018-yilga nisbatan 2,6 barobarga va umumta'lim xarajatlari 33,3 trln. so'm yoki 2,8 barobarga ko'paygan. YAIM hajmi ortib borgan bo'lsa-da, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati pasayib borgan, ya'ni ta'lim xarajatlari ijtimoiy xarajatlarga nisbatan 2022-yilda 42,7% ni 2021-yilda esa, bu ko'rsatkich 43,1% ni tashkil etgan.

Ta'lim sohasiga byudjetdan ajratilgan mablag'larning salmoqli qismi umumiy ta'limni moliyalashtirishga sarflanmoqda. Bunday sarflarning istiqbolda yanada o'sishiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Quyidagi jadvalda O'zbekistondagi umumta'lim tizimi ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyasini ko'rib o'tamiz.

3-jadval

O'zbekistondagi umumta'lim tizimi ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyasi²⁶

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni	400033	419758	457758	501042	523312	529116
O'quvchilar soni	4824974	5271261	5850852	6168198	6287885	6304586
Umumta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, dona)	9 718	9774	10090	10181	10289	10522
Bir maktabga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi	550	609	609	640	654	669

2022-yilda davlat byudjetining umumiy o'rta ta'limga xarajatlari 2021-yilga nisbatan 21,6% ga oshgan. 2017-2022-yillarda umumta'lim tizimidagi ko'rsatkichlar qayd etilishicha, o'quvchilar soni 2017-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib 2022-yilda 6 304 586 taga yetgan.

Bunday o'zgarishni 2018-yilda respublikadagi umumta'lim maktablari soni 9774 ta, 2022-yilda 10522 tani tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 748 taga

²⁵ <https://openbudget.uz/home> O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portal ma'lumotlari asosida tayyorlangan.


²⁶ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

ko'paygan. Shuningdek, o'z navbatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami sinf va to'garak guruhlari soni 25 497 taga, shundan sinflar soni 24 220 taga hamda to'garak guruhlari soni 1 277 taga ko'paygan va xodimlar oylik maoshlari oshirilganligi bilan izohlash mumkin. Umumta'lim muassasalar soni 1,1 barobar oshgan, shu bilan birgalikda bir maktabga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni ham oshib 2022 yilda 669 o'quvchini tashkil etgan. Umumta'lim muassasalarining sonining oshishi bilan bir qatorda o'quvchilar soni ham oshib bormoqda, bu umumta'lim muassasalarining yuklamasini oshishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda joriy qilinayotgan ta'lim tizimining milliy modeli ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ta'lim tizimiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlarni e'tiborga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ta'lim tizimining milliy modeli mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi daromadlarini muntazam oshib borishi va ta'lim tizimi inson hayotidagi o'rnining o'zgarib borishi olib kelishini ta'minlashi zarur. Buning uchun zamonaviy talablarga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari va ular bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda umumta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat yoshlarimizni bilimli savodli bo'lishi uchun va inson kapitaliga investitsiya kiritishning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasining asosiy moliyaviy rejasi smeta hisoblanadi, unda byudjet ajratmalarining umumiy hajmi, maqsadli yo'naltirilganligi va choraklar bo'yicha taqsimoti aks ettiriladi. Smetada o'quv muassasasi, uning o'quv-moddiy bazasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltiriladi. Jamlanma rejalashtirishda xarajatlar har bir talabaga me'yorlar hisobi asosida hisob-kitob qilinadi. Buning uchun rejalashtirilayotgan yil uchun talabalar kontingenti bitiruvchilar, qabul va saralashni hisobga olgan holda o'lchanadi.




4-rasm. Davlat byudjetidan OTMga 2016-2022 yillarda ajratilgan mablag'lar ulushi (foiz)²⁷

